

**MA’RUZA MASHG‘ULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI**

Ruziyeva Dilafro‘z Muminovna

Buxoro davlat pedagogika instituti “Texnologik ta’lim”

kafedrasi o‘qituvchisi

Egamberdiyeva Aziza Tohir qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ma’ruza mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish va uning samarasi haqida bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: kompyuter, raqamli texnologiyalar, virtual voqeylik, IT-mutaxassisi.

“Axborot texnologiyalari sohasini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, tizimning samaradorligini oshirish bo‘yicha qilinayotgan choralar, davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxasislar bilan ta’minalash uchun mustahkam zamin yaratilmoqda” deydi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

Raqamli iqtisodning yuksalishi 21-asrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Bugungi kunni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin albatta. Xususan universitet va institatlarda ham ma’ruza, seminar mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish-bugungi kun uchun yangilik emas albatta. Biz bilamizki, ma’ruza mashg‘ulotlari bir va undan ortiq yo‘nalishlarga bir juftlikning o‘zida o‘qitilishi sababli ham raqamli texnologiyalar (proyektor, kompyuter va televizor)lardan foydalanish ya’ni talabalarning diqqatini jamlash ularni darslarga jalb qilish uchun ham raqamli texnologiyalar juda katta ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim muassalarida raqamli texnologiyalar asosida o‘quv jarayonlarini tashkil etishga qo‘yilayotgan talablar mazkur jarayonni texnologiyalashni, ya’ni butun ta’lim jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, o‘qituvchining maqsadi va talabalarning vazifalarini oydinlashtirish, ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash, mashg‘ulotdan kutiladigan natijalarni oldindan belgilashni shart qilib qo‘ymoqda. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilarga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiqligi ta’kidlanadi:

- o‘qituvchi-talabalar hamkorligida o‘qitish shakllari, ta’lim texnologiyalari hamda metodlarini takomillashtirish;
- o‘qituvchining kasbiy-pedagogik bilimdonligi va kasbiy madaniyatini rivojlantirish;

- hamkorlikka asoslangan o‘quv-biluv jarayonida qulay didaktik vaziyatlarni vujudga keltirish;

-hamkorlikka asoslangan o‘quv-biluv jarayonida o‘qituvchining pedagogik jarayonni loyihalashtirish imkoniyatlarini rivojlantirish;

- o‘qituvchida loyihalashga asoslangan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etish va boshqarish.

Shularni hisobga olgan holda, institut va unversitetlarda raqamli texnologoyalarni yanada ko‘paytirish ulardan samarali foydalanishni tashkil etish va nazoratga olish joizdir. Zamonaviy mehnat bozori yuqori malakali kadrlar tayyorlash zaruriyatini yuzaga keltirdi, shu munosabat bilan ta’lim sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yangilanmoqda.

-Birinchidan maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim, oliy ta’lim integratsiyasida raqamli texnologiyalarning professor-o‘qituvchilarining professionalligi va ijodkorligi;

- Ikkinchidan, o‘z ishlarida turli xil texnik va axborot texnologiyalari vositalarini qo‘llash bilan bog‘liq. Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun dunyo bo‘ylab barcha ta’lim muassasalarini rivojlantirish uchun yangi vositalarni taqdim etadi.

Respublikamiz oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o‘quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash maqsadi qo‘yilgan bo‘lib, unda raqamli texnologiyalarning ta’lim sohasida nafaqat muhim o‘rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo‘yicha tahlillar amalga oshirildi.

Yurtimizdagи nufuzli xususiy o‘quv markazlari ham zamon talabidan kelib chiqqan holda onlayn ta’limni yo‘lga qo‘ymoqda. Bu jarayonning o‘zi ham mamlakatimiz ta’lim tizimida yangi bosqich boshlanganini anglatadi.

Ta’lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko‘plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda ta’limni “raqamlashtirish” muammolari, uning shakllanishiga ta’siri bo‘yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so‘rovnoma asosida tadqiqotlar o‘tkazilmaganligi ham muhimdir.

Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta’sirining ahamiyati hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma’ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va tadqiqotchilarining izlanishlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Ta’limda raqamli texnologiyalarni o‘qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo‘llash uchun nimalar qilish kerak?

Birinchidan, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarining so‘nggi yutuqlarini o‘zlashtirishga shart sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratib berishimiz lozim.

Ikkinchidan, o‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish va axborot resurslari, o‘qitish vositalari va masofaviy o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliv ta’lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujatlarga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o‘quv xonalari, laboratoriylar, mediastudiylar va boshqalarni o‘z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani ta’lim muassasalarida qo‘llash.

Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzlusiz rivojlantirib borish uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratish.

To‘rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma’ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog‘liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o‘tkazish.

Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, video konferents aloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtida masofaviy o‘qitish jarayonini amalga oshirish.

Oltinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo‘llash, raqamli didaktika va raqamli ta’lim modellarini qo‘llash, o‘qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim.

Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta’lim sifatini tushirmagan holda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz.

Alovida ta’kidlash kerakki, bugungi kunda hayotimiz har jihatdan texnika va texnologiyalar bilan bog‘liq, ya’ni ertalab soat bongidan boshlab to kun rejasini tuzish va o‘qish bilan yakunlashgacha, natijada o‘qish jarayoni yaxshilanadi, o‘zlashtirish, ta’lim darajasi va kadrlarni tayyorlash samaradorligi oshadi. Bilimli avlod, professional kadrlar - bu jamiyatning keng miqyosda rivojlanishining garovidir.

Xulosa qilib shuni atyishimiz mumkinki, bugungi kunda davlatimiz tamonidan oliv ta’lim muossasalari uchun yaratilayotgtan va yangilanib borayotgan raqamli texnologiyalar kelajagimiz va uning ravnaqi uchun juda zarur bolib, talabalarga zamonaviy texnologiyalar orqali ta’lim olishlari uchun barcha shart sharoitlar yaratilgan va yaratilib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev 2020- yil 27- may sanasi Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. 2020-y.
2. Сайфуллаева Д. BO‘LAJAK TEKNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING KREATIVLIGINI RIVOJLANТИRISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
3. Muminovna R. D. Ta’lim tizimida foydalanishga mo‘ljallangan dasturiy ta’lim vositalari tasnifi //наука и технологии. – 2023-у. – т. 1. – №. 3.
4. Rayimova D. D. et al. Texnologiya ta’limi praktikumi fanini o ‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari //educational research in universal sciences. – 2023-у. – т. 2. – №. 5. – с. 616-619.
5. Muminovna R. D. TA’LIM TIZIMIDA FOYDALANISHGA MO‘LJALLANGAN DASTURIY TA’LIM VOSITALARI TASNIFI //Наука и технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 3.
6. Kazakov, F., Rajabov, I., Umirov, J., Ruziyeva, D., & Aripova, A. (2021, November). Methods to improve hackles in the production of quality yarn. In Journal of Physics: Conference Series (Vol. 2094, No. 4, p. 042091). IOP Publishing.
7. Ruziyeva D. M., Madinabonu Y. REFORMS IN THE FIELD OF MEDICINE DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE (IN THE CASE OF NAVOI REGION) //Conferencea. – 2022. – С. 178-183.
8. Tohirovich R. E. et al. The Importance of Using Graphics Programs in The Design of Sewing Items //Web of Teachers: Inderscience Research. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 5-8.
9. Ruzieva D. M. FEATURES AND ADVANTAGES OF THE STRUCTURE OF BAKED THREADS USED IN THE PREPARATION OF SEWING PRODUCTS //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 17. – С. 401-408.
10. Гафурова Н. Т., Арипова А. Н. К., Рузиева Д. М. РОЛЬ ЯЗЫКА В РАЗВИТИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ //Архивариус. – 2021. – Т. 7. – №. 8 (62). – С. 20-23.
11. qizi Baxtiyorova S. I., qizi Jo‘rayeva D. B. 5 SINF TEXNOLOGIYA DARSALARIDA “MATERIALLARGA ISHLOV BERISH BO‘LIMI” NI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH//GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 33. – С. 73-79.
12. Бахтиёрова С. И. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕРИАЛОВЕДЕНИЯ //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 80-83
13. Бахтиярова С. И. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ В ВУЗАХ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 18. – С. 507-511.
14. Qizi, B. S. I., Dilmurodovna, R. D., Tohirovich, R. E., & Norjona, P. (2023). TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARNI QO ‘LLASH METODIKASI. Ta’lim fidoyilari, 4(1), 191-197.